O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

BADIIY TARJIMANING ADABIY-ESTETIK TAFAKKUR EVOLYUTSIYASIGA TA’SIRI
(Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)

THE IMPACT OF LITERARY TRANSLATION ON THE EVOLUTION OF LITERARY-AESTHETIC THOUGHT
(Based on the example of Jamol Kamol’s translation work)

DOI:10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/FBZX8543

Qarshiyev Komiljon Abdikarimovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti dotsenti
Samarqand, O‘zbekiston.
ORCID ID: 0009-0006-0798-6388
E-mail: qarshiyevkomil1986 @gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada badiiy tarjimaning mutarjim va kitobxon dunyoqarashiga, adabiy-estetik tafakkuriga ta’siri masalasi Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati negizida tadqiq etilgan bo‘lib, xalqaro adabiy aloqalarda bestseller asarlar tarjimasi muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan muxtasar xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodkor, tarjima, talqin, ta’sir, adabiy-estetik tafakkur, evolyutsiya.*

Annotation.*This article examines the impact of literary translation on the worldviews and literary-aesthetic thinking of both the translator and the reader, using Jamol Kamol’s translation work as a case study; it also draws brief conclusions regarding the significant role played by the translation of bestselling works in international literary relations.*

Keywords: *creator, translation, interpretation, impact, literary-aesthetic thought, evolution.*

Tasviriy san’at, musiqa, raqs, haykaltaroshlik kabi san’at turlari tarjimon xizmatisiz ham davrlar osha xalqlar madaniyati, tamadduni rivojiga ta’sir etaveradi, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy yukni, svilizatsion axborotni tashiyveradi, ammo so‘z san’ati – badiiy adabiyot esa bu borada mutarjim

xizmatiga ehtiyoj sezadi. Shu bois dunyoning eng nufuzli adabiy muhitlarida tarjima maktablarining o‘rni beqiyos sanaladi. Xususan, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning bu boradagi faoliyati sermahsul sanaladi. U 1938-yil 9-noyabrda dunyoga kelgan. Shoirning poliglot ijodkor bo‘lib yetishishida bir nechta ijtimoiy-siyosiy faktorlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Jamol Kamol tug‘ilgan go‘sha Buxoro viloyati edi. U yerning xalqi etnik jihatdan fors-tojik tilida muloqot qilgan. Shu bois bo‘lajak shoir yoshligidan o‘zbek va fors-tojik tillarini ona tilidek ong-u shuuriga singdirib ulg‘aygan. Qolaversa, tarixan Buxoro xonligida rasmiy saroy (devonxona) tili turkiy, nazm (she’riyat) tili forsiy, diniy madrasa ta’limi arabiy tilda olib borilgan. Til ijtimoiy hodisaligini inobatga olsak, yosh shoir uchta tilda, ya’ni boshqaruv – o‘zbek(turkiy)cha, adabiy-nazmiy faoliyat – fors-tojikcha, madrasa ta’limi – arabcha bo‘lgan jamiyat rus istilosiga uchragan davrida tug‘ilgan. Bu davlatchilikka keyinchalik, aniqrog‘i, XIX asr nihoyasi XX asr muqaddimasidan e’tiboran Chorizm istilosi natijasida rus tili ham majburan olib kirilgan. Shunday qilib, Jamol Kamol voyaga yetgan jamiyat Sobiq ittifoq mustamlakasi bo‘lgani bois rus tili davlat tili sanalgan, shu sababli rasmiy til sifatida rus tilini ham qunt bilan o‘rgangan. Bu yosh Jamol uchun jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishish imkonini bergan. Ko‘rinadiki, bir-biriga qardosh bo‘lmagan to‘rt tilli jamiyatda kamol topishning o‘zi ham zehni va quvvayi hofizasi qudratli bo‘lgan insonlarni poliglotlik darajasiga yetishi uchun xizmat qilgan. Turkiy adabiyotning buyuk klassik asarlarini o‘rganish asnosida Jamol Kamol bobo tilimiz – turk tilini ham mukammal o‘rgangan. Istiqlol yillarida Jamol Kamol tarjimonlikka katta kuch sarflaydi va Uilyam Shekspir asarlarini birinchi marta asliyatidan, ya’ni ingliz tilidan ona tilimizga tarjima qilgan. Demak, Jamol Kamolning tarjimonlik sa’viyasini belgilovchi asosiy faktor sifatida uning *ingliz, rus, fors va turk* (qisman *arab*) tillarida erkin muloqot qila oladigan poliglot ijodkor ekanligini qayd etish zarur.

Shoirning istiqlolgacha va istiqlol yillarida amalga oshirgan tarjimalarining o‘zi deyarli qirq jildni tashkil etadi. Jumladan, Uilyam Shekspirning *o‘n ikkita dramasi* va *bir yuz ellik to‘rtta soneti (asliyatdan, ya’ni tog‘ridan to‘g‘ri ingliz tilida)*, Imom Muhammad al-Busiriyning “*Qasidayi burda*”si, Fariduddin Attorning “*Mantiq-ut tayr*”, “*Ilohiynoma*”, *“Asrornoma”, “Pandnoma”, “Bulbulnoma”, “Ushturnoma”*si, Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti jildlik “*Ma’naviyi Masnaviy*”si, Radiy Fishning “*Jaloliddin Rumiy*” tarixiy-biografik romani, Sotim Ulug‘zodaning “*Firdavsiy*” tarixiy romani, Yan Raynisning “*Oq tulpor*” she’riy dramatik ertagi, Bartold Brextning “*Sinchuandan chiqqan*

mehribon” dramasi, Baxtiyor Vahobzodaning “*Faryod*” she’riy dramasi va “*Shabi hijron*” dostoni, Nikola Bualoning “*She’riy san’at*” asari, Shayx Mahmud Shabustariyning “*Gulshani roz*” asari, Yunus Emroning “*Nechun yig‘laysan, ey bulbul*” she’riy kitobi va *“Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar”* asari, Oshiq-baxshi Mudomiy tilidan yozib olingan *“Guli va Alisher hikoyati”* nomli xalq dostoni, Shayx Muzaffar O‘zak al-Xilvatiyning *“Inson qalbi – qadah, muhabbat – sharob”* nomli tasavvufiy asari, Alisher Navoiyning forsiy tildagi “*Foniy gulshani*”, Nizomiy Ganjaviyning “*Xamsa*” asari, Umar Xayyom, Xo‘ja Bahouddin Naqshband va Xo‘ja Abduxoliq G‘ijdivoniylarning *ruboiy*lari Jamol Kamolning tarjimonlik xizmati evaziga o‘zbek kitobxonlariga yetib bordi. Shuningdek, shoir va mutafakkir Jamol Kamol tomonidan muqaddas kitobimiz – Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi adabiy-nazmiy tarjimasi ham amalga oshirilgan, ammo bu tarjima diniy ulamolarimizning tegishli fatvosi bo‘lmagach, keng miqyosda nashr etilmagan.

Shoirning adabiy-nazmiy tarjimalari jahon miqyosida keng e’tirof etilgani, Ko‘nya, Boku va Urumchi shaharlarida nashr etilganligi umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Xususan, Eron Islom Respublikasining xalqaro davlat mukofoti, Turkiya Respublikasining “Jaloliddin Rumiy”, Ozarbayjon Respublikasining “Nizomiy Ganjaviy” oltin medallari, Boku Avro Osiyo universitetining faxriy doktorligi, Buyuk Britaniya Qirolichasi Yelizaveta Ikkinchining tashakkurnomasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari Nebraska shtati va Linkoln shahri faxriy fuqaroligi kabilar shoirning xalqaro darajada e’tibor qozonganligidan dalolat beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yashab ijod etgan Italiyalik adib va faylasuf Umberto Eko: “Tarjima – bu ikki til o‘rtasidagi emas, ikki madaniyat o‘rtasidagi ko‘chishdir”, - degan edi. O‘zbek tarjimashunos olimi Qudrat Musayev tarjima turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik aloqalarini tiklashi, milliy adabiyotni yangi g‘oyaviy yo‘nalishlar, obrazlar, badiiy tasvir vositalari bilan boyitishi, ona tilining imkoniyatlarini kengaytirishi, adabiy-estetik didni shakllantirishini alohida ta’kidlaydi (Musayev, 2005: 9-10). Shundan kelib chiqib, fikr yuritilsa, Jamol Kamol tarjimalari milliy tafakkurni xalqaro miqyosdagi adabiy-nazmiy manbalar bilan tutashtirishda, o‘zbek kitobxoni dunyoqarashini o‘stirishda munosib xizmat qilgan.

Jahon adabiyotshunosligida so‘z san’atining ommaviylikka suyanishi, muayyan bir xalqning turmush-tutumidagi hodisalardan boshqa bir xalq vakilining ibrat, xulosa olishi, mohiyatini anglashi, ruhiyat tasvirining badiiy asar

qahramonlarda namoyon bo‘lishi, psixopoetik asosdagi badiiy kartinalarni obrazli yaratishda ijodkorning milliy koloritga tayanishi va bu orqali badiiy ekzotikani hosil qilishi yuzasidan antropotsentrik yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu, o‘z navbatida, badiiy tarjimaning estetik tafakkur rivojiga ta’siri masalasini chuqurroq o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shularni inobatga olib, badiiy tarjimadagi tasvirning aksiologik, ekzotik, adabiy-estetik va ma’rifiy mohiyatini Jamol Kamolning tarjimalari asosida tadqiq qilish nazariy asos qilib olindi. Jumladan, Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masnaviy” asarini, Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” nomli biografik romanini va Nikola Bualoning “She’r sanati” asarini tarjima qilish orqali Jamol Kamol nafaqat o‘z ijodiy monerasida, balki kitobxonlar tafakkurida ham falsafiy, tasavvufiy, badiiy evolyutsiyani yuzaga keltirgan.

1. “Ma’naviy masnaviy” tarjimasining ijodkor va kitobxon tafakkuriga ta’siri masalasi. Jaloliddin Rumiyning bu nodir asariga XVII asrda Boborahim Mashrab payrov qilib, “Mabdayi nur” asarini yaratgan. Sovet tuzumi davrida Jaloliddin Rumiyning g‘oyalari “zararli”, uning o‘zi “diniy-mistik” shoir deb e’lon qilinishi natijasida rumiyona falsafa yo‘li to‘sib qo‘yilgan edi. 1986-yilda Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” nomli tarixiy-biografik romani Jamol Kamol tomonidan tarjima qilinib, bu siyosiy “to‘siq” olib tashlandi. Shundan so‘ng Jamol Kamol tomonidan Jaloliddin Rumiyning ruboiy va rivoyatlari saralanib tarjima qilinib, *“Uchmoqqa qanot yo‘q, vale uchgayman”* nomi bilan nashr etilishi asnosida O‘zbekistonda rumiyxonlik va rumiyshunoslik qayta boshlanib ketgan. Orif Usmon, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul va Sultonmurod Olim kabi adabiyotshunoslar Rumiy ijodini tadqiq etishgan. Istiqlol yillarida Ulug‘bek Abduvahob Jaloliddin Rumiyning “Fihi ma fihi” (Ichindagi ichindadur) asarini, Asqar Mahkam “Masnaviy”ning birinchi kitob birinchi qismini turk tilidan tarjima qilib nashr ettirishgan. Shu bilan birga Odil Ikrom, Sulaymon Rahmon kabi ijodkorlar ham “Ma’naviy masnaviy” tarjimasiga qo‘l urgan. Jamol Kamol tomonidan Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masanaviy” asari 2002 – 2004-yillarda aruz vaznida to‘liq tarjima qilinishi esa alohida adabiy-estetik hodisa bo‘ldi. Mazkur tarjima natijasida shoirning ijodiy monerasida diniy-tasavvufiy mavzularga murojaat, adabiy-estetik qarashlarida esa Rumiy falsafasidan ilhomlanish, shoh baytlaridan intertekstual tarzda foydalanish kompetensiyasi vujudga kelgan.

Jaloliddin Rumiy asari ustida ishlash Jamol Kamolning adabiyotga bo‘lgan estetik yondashuvida so‘fiylik falsafasini, tavhidni, ilohiylikni kuchaytirgan.

Shuning uchun adabiy suhbatlaridan birida: “Dunyodagi barcha fanlar taningga xizmat qiladi, adabiyot esa joningga, ruhingga quvvat beradi”, – degan qarashni ilgari suradi. Shuningdek, shoirning “Abadiyat ostonasida” nomli tanlangan asarlarining III jildida jamlangan adabiy-estetik mulohazalarida, publitsistik chiqishlarida Rumiydan ilhomlanish ottenkasi dominantlik kasb etadi. Bu jilddagi deyarli har bir maqolada Rumiydan iqtibos keltirilgan. Masalan, “Ruhiyat yulduzi” nomli maqolasida Jamol Kamol zamondosh shoirlarga ko‘p tilni bilishni nasihat qilar ekan, shoir ko‘ksidagi ruhiyat yulduzi ishq tilida kuylashini bayon qilib, Jaloliddin Rumiyning quyidagi baytini keltiradi:

Ishq tili rubob tilidek sir emish,
Turk-u yunon-u arabga bir emish. (Jamol Kamol, III.2018: 251)

Ko‘rinadiki, Maqsud Shayxzoda “rubobiy she’riyat”, Jamol Kamolning o‘zi “lirik she’riyat” deb nomlagan tuyg‘ular kartinasiga oid she’riyatda ishq tili rubob tilidek sehrli va ayni paytda sirli ekanligi intertekstullik bilan dalillangan. Baytning asliyati kabi ramali musaddasi mahzuf vaznida tarjima qilinishi o‘ziga xos musiqiy tarovat kasb etgan. Bu o‘z navbatida Rumiy falsafasining tarjimon va u orqali kitobxon shuurida nuqsi aks etganidan dalolatdir. Bu jarayonda tarjima san’ati Rumiy falsafasi va kitobxon dunyoqarashi o‘rtasida etalon vazifasini bajargan.

2. Jamol Kamolning tarjimalari orasida Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” romani katta ahamiyatga ega. Negaki bu asarning tarjima qilinishi 1986-yilda amalga oshirilgan bo‘lib, Sobiq Ittifoqning mafkurafiy ta’siri natijasida turkiy xalqlarning dongdor qomusiy olimlari-yu, dunyo tan olgan tarixiy shaxslari bekitib kelinayotgan bir paytda Jaloliddin Rumiy timsoli sovetlashgan, o‘z tarixi, tili, dini va madaniyatidan uzoqlashtirilgan o‘zbek kitobxonlari orasida katta rezonans berdi. Asarning o‘zbek madaniy muhitida katta shuhrat qozonishi, o‘qishli kitobga aylanishida muhim sabablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: birinchi sabab, tarjimaning mukammal darajada amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Bunda Jamol Kamolning tasavvuf falsafasini teran anglashi, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishi tarjimaning shirali, ravon va ta’sirchan chiqishini ta’minlagan. Ikkinchi sabab shuki, o‘zbek xalqi azaldan Mavlono Rumiy ijodiga, uning “Masnaviy”siga yuksak ehtirom bilan qaragan. Negaki bu noyob asarni Yevropada “Forsiy tildagi Qur’on” deya e’tirof etilgani bejiz emas, ammo Jaloliddin Rumiy va uning tasavvuf falsafasi Sobiq ittifoqning “diniy klerikal” manbalarga qo‘ygan cheklovi tufayli xalqdan uzoq tutilar edi. Turg‘unlik davrining so‘nggi choragida bu asarni tarjima qilish o‘zbek xalqining

Jaloliddin Rumiy va uning asarlariga bo‘lgan tashnaligini, ma’naviy va diniy ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Jamol Kamol ta’biri bilan aytganda, “Rumiy haqidagi yo‘lg‘on va uydirmalar chilparchin bo‘lib, xalqimiz Jaloliddin Rumiyni qaytadan kashf etdi”.(Jamol Kamol, III.2018: 262) Shuningdek, Radiy Fish asarni yozishda quruq biogrfik ma’lumot bermasdan Jaloliddin Rumiy ijodidan, uning ruboiy, g‘azal va masnviylaridan intermatn sifatida unumli foydalangani bois roman o‘ziga xos badiiy jozibaga ega bo‘lgan. Masalan, romanning “Xotin ne demak” faslida yosh Jaloliddin va uning akasi A’louddin o‘zaro janjallashib qolganda otasi Sultonul Ulamo ularga quyidagi *fors, turk, arab* va *yunon* haqidagi bir rivoyatni aytib beradi:

Borishardi turk, arab, fors-u yunon,
Shunda bir kimsa – anis-u mehribon.
Xayr, deb bir tanga savg‘o ayladi,
Yo‘qki savg‘o, balki g‘avg‘o ayladi.
Fors dedi: “Bozor tushaylik shul zamon
Aqchaga angur olaylik do‘st-u jon”.
“Qo‘y bu gapni, - deb uni kesdi arab
Eynab olsak aqchaga bo‘lgay ajab”.
Turk dedi: “Behuda gaplarning bari,
Mevalar ichra uzumdir sarvari”.
Shunda yunon ham aroga soldi so‘z:
“Ey harid etmoqqa stofil durust”.
Bas, ular bir qarorga keldilar,
Lek tushunmay bahs-u g‘avg‘o qildilar.
Barchada xohish uzum erdi faqat,
Barchasi birdek uzum derdi faqat. (Radiy Fish, 2023: 101-102.)

Ko‘rinadiki, Radiy Fish o‘z romanida o‘yinqaroq, akasi bilan janjallashib qolgan yosh Jaloliddin obrazini gavdalantirishda dono ota – Sultonul Ulamoning tarbiyaviy ahamiyatdagi rivoyat aytib berishi orqali bola ruhiyati va ma’naviyati shakllanishida otaning o‘rni katta ekanligiga urg‘u beradi. Bu she’riy hikoyat o‘zbek xalqi orasida Rumiyning “Ma’naviy Masnaviy” asari va Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” romani orqali keng tarqalgan. Rivoyat tasavvufiy qiymatga egaligi tufayli bir necha xil semantik qatlamga ega. Turkiy xalqlarda masnaviy quyidagi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

Birinchi ma’no zohiriy bo‘lib, unda til bilmaslik tushunmovchilikka, turli bahs-u g‘avg‘oga sabab bo‘lishi muqarrarligini uqtirish uchun aytiladi. Shu bois,

xorijiy tillarni o‘rganish orqali kishilik dunyosida adashmaslikka undaydi. Til bilgan el bilar talqinida qo‘llaniladi.

Ikkinchi ma’no botiniy bo‘lib, rivoyat mazmunidagi yashirin ma’noni ilg‘ashni talab etadi. Bu rivoyatning botiniy, ichki mazmunida Allohni har xil diniy e’tiqodda, o‘z bilganicha, har xil yo‘l bilan ulug‘lashi, aslida, mohiyat bitta, hamma Yaratganga talpinadi qabilidagi mazmun yotadi. Shuningdek, forsning *“angur”*, arabning *“enab”,* turkning *“uzum”* va yunonning *“stofil”* deya birgina “uzum”ni nazarda tutishi, ammo o‘zaro bir-birini tushunolmay tortishishi zamirida islom dinining mazhablarida kuzatiladigan bir tushunchani, ya’ni Allohga e’tiqodni farqlanishi ham nazarda tutiladi. Bu o‘rinda she’riy rivoyatning botiniy va zohiriy mazmunini saqlagan holda nazmiy o‘zbeklashtirgan Jamol Kamolning mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Jamol Kamolning kundaliklarida qayd etilishicha, u Radiy Fishning “Jaloliddn Rumiy” romanini ustozi To‘xtasin Jalolovdan tarjima qilishini so‘raydi, ammo ustozi bu asarda she’riy matnlar borligi uchun uni tarjima qila olmasligini aytadi. Shunda Jamol Kamol romandagi she’riy parchalarni o‘zi tarjima qilishini aytadi. Ustozi bu ishga kirishavermagach, romanni to‘liq nasriy va nazmiy qismini o‘zi tarjima qiladi.(Jamol Kamol, III.2018: 253) Bu roman tarjimasi orqali o‘zbek kitobxonlari nafaqat Jaloddin Rumiy siymosini, balki turkolog olim Gennadiy Fish va yigirma yil umrini Rumiyni o‘rganishga bag‘ishlagan uning o‘g‘li Radiy Fish haqidagi adabiy-estetik qarashlarga ham ega bo‘lgan.

3. Nikola Bualoning “She’r san’ati” asari tarjimasi orqali adabiy-tanqidiy qarashlarning evolyutsion tadrijiga erishilgan. Jumladan, Jamol Kamol fransuz ijodkori Nikola Bualo-Depresning “She’r san’ati” asarini rus tilidan tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslariga ilk bora ona tilida “jahon estetik tafakkurining o‘lmas durdonasi”ni mutolaa qilish imkonini yaratdi. Akademik Naim Karimov tomonidan “Estetik tafakkur durdonasi”, V.G.Beliniskiy tabiri bilan aytganda, “Fransuz estetikasining Qur’oni”, - deya baholangan bu asar 1674-yilda yozilgan bo‘lib, fransuz adabiyotining “oltin asri” – klassisizm davrining eng nodir adabiy-estetik qarashlarini o‘zida mujassam qilgan. Akademik N.Karimov bu asar haqida shunday mulohaza bildirgan: “Antik davr asarlariga tatabbu tarzida yozilgan “She’riy san’at” o‘zida qadim adabiyotning ikki go‘zal irmog‘i – Aristotelning “Poetika”si va Gorotsiyning “She’riyat ilmi”ni ixcham umumlashtirgan”. (Jamol Kamol.IV.2018: 425.) Demak, Bualo ilgari surgan “She’r san’ati” falsafasi o‘zigacha yaratilgan jahon adabiy-estetik

qarashlaridan oziqlangan. Bualo bu asarida antik adabiy-estetik qarashlarni hamda fransuz adabiyotidagi yetakchi estetik tamoyillarni sintezlashtirgan. Shuningdek, o‘z estetikasining asosiy prinsiplarini ham bayon qiladi. Unga ko‘ra, tabiatga taqlid qilish, undan andaza olish Bualoning ijodiy monerasini belgilaydi. Anglashiladiki, naturalist sifatida Bualo she’riyatni tabiatdan ilhomlanish, uni sevish tamoyillari orqali ifodalab, undagi asosiy ijtimoiy-madaniy yuk ona tabiatni sevishga qaratilganligini ta’kidlaydi.

“She’r san’ati ” asarining eng muhim xususiyati shuki, unda ilgari surilgan nazariy qarashlar hozirgacha o‘zining qiymatini yo‘qotmagan. Masalan, she’r matnidagi shakl va mazmun, unli va undosh tovushlar garmoniyasiga oid quyidagi fikr har qanday davr lirikasi uchun ahamiyatli sanaladi:

Teng ikkiga bo‘ling har bir misrani,
Yarqirab ochilsin ma’no chamani.
Diqqat nazaringiz charchab tolmagay,
Unlilar orasi ochiq qolmagay.
Ohangdosh so‘zlardan oqizing to‘lqin,
Undoshlar behuda solmasin shovqin.
She’rda ma’no bo‘lib, bo‘lmasa jarang,
She’r – nochor, shoirning esa holi tang. (Jamol Kamol.IV.2018: 381)

Ko‘rinadiki, she’riyat ilmi, she‘r yozish san’ati va ijodkor mas’uliyati muayyan davr yoki millat, xalqqa taalluqli hodisa emas, uning o‘zak negizida umumbashariy, mukammal nazariy qoidalar majmuyi yotadi. Muallif she’rda shakl va mazmun uyg‘unligini, shakl va musiqiylik unli va undosh tovushlarning she’rdagi mutanosibligiga, ohangdoshligiga (alliteratsiya va assonans) bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, noo‘rin ishlatilgan undoshlar she’rning musiqiyligini buzishi mumkinligidan ogohlantiradi. She’rning eng muhim xulosasi oxirgi baytda berilgan. She’rda faqat ma’no (falsafa) bo‘lib, go‘zal ohang va jarang bo‘lmasa, u original she’r hisoblanmaydi. Bualo tomonidan to‘kis asar yaratish uchun mazmun ham, shakl ham bir-birga uyg‘un bo‘lishi shart, shundagina mazmun va jarang garmoniyasiga erishiladi, degan qarash ilgari surilgan. Mukammal tusdagi bu adabiy-estetik qarash nafaqat so‘z san’atkorlari, adabiy tanqidchilar, balki muallifning o‘ziga ham tayanch nuqta sifatida xizmat qilib, lirik asarlaridagi shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlashga xizmat qilgan. Masalan, *“Ul sanamning o‘zi kulgay, ko‘zi kulmasdan burun / O‘zi kulgaymi sanamning ko‘zi kulmasdan burun”* kabi musiqiy tarovatga ega, ma’no va jarangi teng taqsimlangan misralarida Jamol Kamol yuqoridagi adabiy-estetik

qarashga me’yor darajasidagi tendensiya sifatida qaraydi. Bu esa shoirning ijodiy tafakkuriga tarjima asarlar sezilarli ta’sir etganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Jamol Kamol adabiy-tanqidiy maqolalarida fikrni dalillashda Nikola Bualoning “She’r san’ati” asaridagi quyma satrlardan ilmiy-nazariy iqtibos sifatida ham foydalangan. Jumladan, “Doston mas’uliyati” nomli tanqidiy maqolasida XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan o‘zbek dostonlarini baholar ekan, Ramz Bobojonning “Yusuf va Zulayho” dostonida badiiylikdan bebahra uzun bayonlar, misralarning bepardozligi, g‘aliz satrlar go‘zal afsonani jozibadan mahrum etib, xiralashtirganligi ta’kidlaydi va muallifning iste’dodini, Bualo ta’biri bilan aytganda, “o‘rtacha mahorat” deya quyidagicha izohlaydi: “O‘rtacha g‘ishtchi bo‘lsang – yaxshi, o‘rtacha temirchi bo‘lsang ham – yaxshi, o‘rtacha nonvoy bo‘lsang ham – yaxshi … *Biroq she’riyatda bu yo‘l bedodlik / O‘rtacha bo‘lishlik – beiste’dodlik*…”(Jamol Kamol.III.2018: 281) Qolaversa, Jamol Kamol tanlangan asarlarining to‘rtinchi jildini aynan “She’r san’ati” deb nomlashi, unda adabiyotshunos sifatidagi tadqiqotlarini jamlashi, she’r ilmi, aniqrog‘i, “Lirik she’riyatda kompozitsiya birligi” nomli ilmiy tadqiqotini va Nikola Bualoning noyob estetik durdonasining tarjimasini shu jildda nashr etishining o‘zi ham tarjima asarlarning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’sirini o‘zida ifoda etgan.

Xullas, Jamol Kamolning badiiy tarjimalari ikki xil poetik evolyutsion natijadorlikni yuzaga keltirgan. Bularning birinchisi sifatida, tarjima qilingan asar muallif dunyoqarashi, ijodiy monerasi va tafakkur tarziga ta’sir etgani bo‘lsa, ikkinchisi – tarijmon mahorati bilan o‘zbekchalashtirilgan badiiy matnning kitobxon shuuriga ta’siri masalasi sanaladi. Shu bilan birga, Jamol Kamol tomonidan “Qur’oni Karim”ning adabiy-nazmiy tarjimasi amalga oshirilishi, Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning hadislaridan ilhomlanib, “Qirq hadis ilhomi” turkumining yaratilishi asnosida uning ijod olamida diniy-ma’rifiy motiv ustuvorligi yuzaga kelgan va bu ijodiy kamolot ko‘rsatkichi sifatida voqelanganki, ayni jihat ham adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasi belgisi demakdir.

ADABIYOTLAR

1. Haqqul I. She’riyat – dard va umid demak // Buxoro mavjlari, 2008. № 3. –B.23.

2. Haqqul I. Hayot, adabiyot va abadiyat. – Toshkent: Tafakkur, 2019. –B. 143-151.

3. Hasanov Sh. Iste’dodning rangin jilolari // – Toshkent, Sharq yulduzi, 2019, №1. –B. 109-

4. Hasanov Sh. Davr va doston // – Toshkent, Sharq yulduzi, 2002. – № 4. – B. 148-150.

5. To‘xsanov Q. Jamol Kamol – mohir tarjimon // BuxDU Ilmiy axboroti, 2020, № 4. –B.181-190.

6. Kamol, Jamol. Asr bilan vidolashuv. –Toshkent: Fan, 2007. 325 b.

7. Kamol, Jamol. Yana ko‘nglimda ul oy . –Toshkent: MERIYUS, 2010. – 297 b.

8. Kamol, Jamol. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. I jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. –492 b.

9. Kamol, Jamol. Yonayotgan dala. Saylanma. II jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 441 b.

10. Kamol, Jamol. Abadiyat ostonasida. Saylanma. III jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 492 b.

11. Kamol, Jamol. She’r san’ati. Saylanma. IV jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 492 b.

12. Kamol, Jamol. Anvar Mirzo hikoyatlari. Saylanma. V jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 456 b.

13. Kamol, Jamol. Bulbulnoma. Saylanma. VI jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 478 b.

14. Kamol, Jamol. Shayxurrais.Saylanma. VII jild. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. – 416 b.

15. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.

16. Nazarova D. Jamol Kamol she’riyati poetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2021. – B. 166.

17. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. (Tarixiy biografik roman). –Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 272 b.

18. Qarshiyev K.A. Jamol Kamol she’riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022. – B. 147.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**